Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81
FILOLOGIYA

# SHUKUR XOLMIRZAYEV NASRIDA LIBOS VA MAISHIY REALIYALARNING LINGVOMADANIY OPPOZITSIYASI ("So'nggi bekat" romani misolida)

Mashxura Axmadjonovna Xusanova*
*FarDU mustaqil izlanuvchisi*
✉ mashhurahusanova1408@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada taniqli o'zbek adibi Shukur Xolmirzayevning "So'nggi bekat" romani materiallari asosida antropotsentrik tilshunoslikning eng faol yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvokulturologiya aspektida tadqiq etilgan. Maqolada badiiy matnda qo'llangan milliy-etnografik realiyalar (o'choq, yer-o'choq, chopon, do'ppi, dasturxon, qovurdoq va b.) hamda madaniy kodlarning qahramonlar ichki ruhiyati, sotsial statusi va o'zbek oilaviy andisha me'yorlarini ifodalashdagi lingvopoetik va pragmatik funksiyalari ochib berilgan. Tadqiqot davomida oddiy leksik birlik va lingvokulturema tushunchalarining farqlash mezonlari aniqlashtirilgan hamda romandagi milliy birliklarning foiz ko'rsatkichlari aks etgan statistik tahlil taqdim etilgan.

**Kalit so'zlar**

lingvokulturologiya, lingvokulturema, madaniy kod, milliy-etnografik realiya, Shukur Xolmirzayev, o'choq, chopon, dasturxon, milliy mentalitet, stereotip.

DOI: 10.5281/zenodo.21743025

## KIRISH

Zamonaviy tilshunoslik paradigmasida tilni shunchaki aloqa vositasi yoki lisoniy tamoyillar majmuyi sifatida emas, balki muayyan xalqning dunyoqarashi, milliy madaniyati, ma'naviy xotirasi va mentalitetini o'zida saqlovchi hamda avloddan avlodga uzatuvchi murakkab kognitiv-semiotik tizim sifatida o'rganish (antropotsentrik yondashuv) yetakchi o'ringa chiqdi. Til va madaniyat sintezini tadqiq etuvchi fanlararo soha – lingvokulturologiyaning shakllanishi badiiy matnlarni yangicha talqin qilish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Badiiy asar tili – bu etnos milliy olam manzarasining lisoniy in'ikosi bo'lib, unda milliy-etnografik realiyalar va madaniy kodlar yozuvchining estetik va falsafiy maqsadlarini ro'yobga chiqaruvchi eng markaziy lisoniy vositalar hisoblanadi.

O'zbek adabiyotining yirik namoyandasi, realistik uslub ustasi bo'lgan Shukur Xolmirzayev ijodi o'zining milliy koloriti, xalq hayotini, ayniqsa, Surxon vohasi etnomuhitini bor bo'yicha va barcha realliklari bilan tasvirlashi bilan ajralib turadi. Adibning **"So'nggi bekat" romani** ham jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy evrilishlar, milliy o'zlikni saqlash muammolari va qahramonlarning ruhiy iqlimi tasvirlangan mukammal asarlardan biridir. Mazkur asar tilini lingvomadaniy aspektda kompleks tadqiq etish, matndagi realiyalarning oddiy maishiy vosita darajasidan chiqib, qanday qilib yashirin madaniy kod (lingvokulturema) maqomini kasb etganini aniqlash tadqiqotimizning bosh maqsadini tashkil etadi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning nazariy asosini jahon va o'zbek tilshunosligida til va madaniyat munosabatini o'rgangan olimlarning (V.Gumboldt, V.Vorobyov, N.Mahmudov, Sh.Safarov va b.) fundamental konsepsiyalari tashkil

etadi. Maqolada komponent tahlil, kontekstual-semantik tahlil, kognitiv-lingvokulturologik sintez hamda matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Lingvokulturologiyaning eng muhim tushunchalaridan biri bu – **lingvokulturema**dir. V.Vorobyov ta'rifiga ko'ra, lingvokulturema tarkibida lisoniy ma'no va madaniy mazmunni (semasini) bir vaqtda mujassamlashtirgan murakkab birlikdir. Badiiy matn tahlilida oddiy leksik birlik (so'z) bilan lingvokulturema o'rtasidagi chegarani aniq belgilash metodologik jihatdan juda muhim. Agar matnda biron bir milliy kiyim yoki buyum nomi shunchaki o'zining denotativ (lug'aviy) ma'nosida, hech qanday ko'chma, ramziy yoki psixologik yukka ega bo'lmasdan kelsa, u oddiy predmet nomi (so'z) hisoblanadi. Biroq mazkur so'z kontekst ichida biron bir milliy stereotipni, qahramonning ruhiy holatini, axloqiy me'yorni yoki etnik kodni ifodalasa, u avtomatik ravishda lingvokulturemaga aylanadi.

Tadqiqot davomida "So'nggi bekat" romanidagi har bir milliy birlik aynan mana shu mezon asosida saralandi va ularning statistik korpusi shakllantirildi.

**TAHLIL VA NATIJA**

O'zbek milliy kiyim-kechak madaniyatida chopon, do'ppi va belbog' shunchaki inson tanasini sovuq yoki issiqdan himoya qiluvchi kiyimlar emas, balki shaxsning mardligi, iymon-e'tiqodi, milliy or-nomusi va sotsial statusini nutqsiz (semiotik) ko'rsatib beruvchi universal belgilar tizimidir. Adib romanda ushbu elementlardan qahramon portretini yaratishda psixologik detal sifatida juda mahorat bilan foydalangan.

Romanning **116-sahifasida** yoshi ulug' cholning og'ir hayajon holatidagi tasviri beriladi: *"Cholning ham ko'ngli buzildimi, uzun choponi o'ngirini olib ko'zini artdi..."* Ushbu matnda **"chopon"** birligi o'zining birlamchi lug'aviy ma'nosidan chiqadi. Voha (Surxon) madaniy muhitida erkaklarning, ayniqsa, keksalarining dastro'mol ishlatishi kam kuzatiladi. To'satdan yuzaga kelgan ruhiy larza va ko'z yoshini uzun chopon etagi (o'ngiri) bilan yashirib artish – o'zbek chollariga xos bo'lgan tabiiylik, samimiylik, soddalik va andisha kabi **somatik-ruhiy madaniy kodni** ifodalaydi.

Aksincha, romanning **25-sahifasida** libos unsurlarining lisoniy antiteza (qarama-qarshi qo'yish) usuli orqali inson ichki dunyosidagi ziddiyatlarni va ma'naviy inqirozni ochishga xizmat qilganini ko'ramiz:

*"– Qaydam! – O'ktam ijirg'andi.*

*– Bu ayni gap. Safardan qaytib kelib, shapkani do'ppiga, kostyumni choponga almashtirgani bilan bari bir o'zgarmagan. Ichadi. Ha, ichadi! Qaytmaydi!"*

Mazkur matnda **"shapka va kostyum"** kodi urbanizatsiyalashgan (shahar) madaniyati va sovet davri ijtimoiy qiyofasi orqali milliy muhitga kirib kelgan begonalashuvni anglatsa, **"do'ppi va chopon"** kodi an'anaviy etnomadaniyat, ma'naviy poklik va milliy o'zlik ramzidir. Biroq qahramonning faqat tashqi tomondan shapkani do'ppiga, kostyumni choponga almashtirgani uning ichki dunyosini o'zgartirmaydi. Bu yerda adib **"tashqi lingvomadaniy niqob"** (kvazi-madaniyat) hodisasini ochib bergan. Xalq kognitiv ongida "do'ppi kiygan va chopon yopingan inson milliy va diniy axloq me'yorlaridan (masalan, ichkilikbozlikdan) uzoq bo'lishi kerak" degan qat'iy stereotip mavjud va matnda qahramon tomonidan bu kutilmaning buzilishi (fosh etilishi) ijtimoiy-axloqiy va baholovchi lingvokulturema vazifasini mukammal ochgan.

Romaning **245-sahifasida** esa an'anaviy o'zbek erkagining ideal portreti uchta klassik element orqali to'liq konseptuallashadi:

*"Quvvathbekovning o'zi eshik og'zida, stulda o'tiribdi. Egnida chopon, belida qiyiq, boshida do'ppi."*

Ushbu o'rinda chopon, qiyiq va do'ppi triadasi (uchligi) insonning ijtimoiy salobati va etnik pasporti sifatida namoyon bo'ladi. Eshik og'zida bu liboslarda o'tirish – mezbonning kelayotgan mehmonga bo'lgan cheksiz hurmati va xizmatga shayligini, belga qiyiq (belbog') bog'lash esa jiddiylik va mas'uliyat madaniy kodini ifodalaydi.

Romanning **233-sahifasida** belbog' realiyasining musiqiy madaniyat bilan sintezi kuzatiladi: *"Do'mbira! Do'mbirasi! Do'mbirani sopidan belboqqa qistirib qo'ymasa, qayerga qo'yadi?"*

Surxon vohasi dunyoqarashida **"do'mbira"** shunchaki cholg'u asbobi emas, u baxshichilik san'atining sakral asosi, dostonchining ruhiy yo'ldoshidir. O'zbek erkagi madaniyatida **"belbog' " (belboq)** o'ziga xos amaliy vazifalarni ham bajargan bo'lib, unga do'mbirani qistirib qo'yish harakati voha ijodkorlari va baxshilari turmush tarzining o'ziga xos an'anaviy lisoniy-etnografik kodini yuzaga keltirgan.

**2. Milliy maishiy-etnografik realiyalar tahlili (O‘choq, Yer-o‘choq, Dasturxon, Qovurdoq)**

Realiyalarning lingvokulturologik tabiatini belgilovchi eng bosh xususiyat – ularning lakunalligi, ya’ni boshqa tillarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilib bo‘lmasligidir. O‘zbek olam manzarasida “o‘choq” va “dasturxon” tushunchalari shunchaki fizik buyumlar chegarasidan chiqib, oilaviy qut-baraka va ijtimoiy munosabatlar markaziga aylanadi. Romanning **87-sahifasida** mehmondo‘stlik konsepti doirasida shunday tasvir beriladi:

*“...Ishoq chol ayvonga chiqarib, ko‘rpachaga o‘tqazgach... So‘ng burilib, o‘choq boshida kuymanayotgan Nasibaga qaradi.”*

Bu yerda **„ayvon“** va **„ko‘rpacha“** realiyalari mehmonga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom makonini vizuallashtirsa, **„o‘choq boshi“** va unda kuymanayotgan **„kelin“** obrazi o‘zbek oilasining an’anaviy ichki ierarxiyasini, xonadonning tinchligi va ayol kishining mehnatsevarlik hamda andisha stereotipini ifodalovchi madaniy semalarni tashiydi.

Biroq adib asarning **115-sahifasida** aynan mana shu o‘choq realiyasi orqali oilaviy andisha tizimidagi inqirozni qarama-qarshi (antiteza) tasvirlash orqali ko‘rsatib beradi: *“Chol kelinining kutilmaganda o‘tirib olganidan hayratlanib, o‘zi o‘choq boshiga ketayotgan edi.”*

Ushbu qisqa kontekstda an’anaviy madaniy rollarning buzilishi lisoniy muhrlangan. Yoshi ulug‘ qaynota (chol) turganda kelinning kutilmaganda o‘tirib olishi va o‘zbekona tartibga zid ravishda cholning o‘zi o‘choq boshiga (taom hozirlashga) yo‘l olishi oilaviy munosabatlardagi ma’naviy balansning yo‘qolganini ko‘rsatuvchi **sotsial-psixologik lingvokulturema** hisoblanadi.

Romanning **166-sahifasida** an’anaviy o‘choqning chorvachilik va yaylov hayotiga xos bo‘lgan regional shakli – **„yer-o‘choq“** (yero‘choq) realiyasi uchraydi:

*“Otov oldidagi yero‘choqdan tutun burqsir edi. «Uyda, ayoli uyda», o‘yladi u...”*

Bu yerda eng go‘zal lingvomadaniy topilma – yer-o‘choqdan chiqayotgan tutunni ko‘rib, qahramonning “uyda ayoli bor” degan xulosaga kelishidir. O‘zbek mentalitetida o‘choq va uning tutuni – hayot, ro‘zg‘orning tirikligi va eng muhimi, o‘choq boshining haqiqiy sohibasi bo‘lmish **„ayol/beka“** stereotipi bilan bog‘liq. Tutunning chiqib turishi xonadonda mehmonga choy-ovqat hozirlashga tayyor ayol borligidan, ro‘zg‘orning butunligidan dalolat beruvchi milliy koddir.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, asardagi har bir o‘choq so‘zi ham lingvokulturema bo‘la olmaydi. Masalan, asarning **176-sahifasidagi**: *“Vagonning burchagida, temir bochkadan yasalgan o‘choqda qozon qaynayapti”* gapidagi o‘choq birligi hech qanday milliy-etnik qadriyatni yoki ramziylikni ifodalamay, shunchaki vaqtinchalik vagon sharoitidagi sof maishiy-texnik predmet (vosita) ma’nosida kelgan.

Romanda **“dasturxon”** realiyasi ham to‘liq madaniy yuk tashib kelgan. Asarning **27 va 28-sahifalarida** maorif mudiri ishtirokidagi sahnada *“...davra dasturxon atrofida jam bo‘lib o‘tirishar edi”* hamda *“Qani, dasturxonga qaranglar! Taom mahtal bo‘lmasin”* kabi jumlalar uchraydi. Bu yerda dasturxon – o‘zbekona muloqot va begona odamlarning tezda yaqinlashishi, norasmiy va samimiy suhbat qurishi uchun xizmat qiluvchi **ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) makonidir**.

Asarning **85-sahifasida** dasturxon realiyasi uy milliy pazandachilik mahsuli bo‘lgan, biroq voha (Surxon) etnomuhitida, chorvachilik an’analarida mehmon kelganda ko‘rsatiladigan oliy iltifot va tezkor mehmondo‘stlik belgisi hisoblangan **„qovurdoq“** realiyasi bilan sinkretleshgan: *“...Qadrbek aka, qovurdoqqa qarang. Quvvatbekov hushyor tortib, dasturxonga qaradi.”*

Eng diqqatga sazovor til materiali romanning **131-sahifasida** namoyon bo‘ladi: *“...Ularning nomini bir joyda «dasturxonchi» deyishsa, bir joyda «kayvani» deb atashadi.”*

Bu yerda „dasturxon“ o‘zagi asosida yasalgan **„dasturxonchi“** birligi an’anaviy o‘zbek ayollarining ijtimoiy-madaniy statusini, to‘y va marosimlarni boshqarish qobiliyatini ko‘rsatuvchi, xalq hayotini tartibga soluvchi **sof regional lingvokulturema** sifatida asarning milliy koloritini ta’minlashga xizmat qilgan.

**XULOSA**

Shukur Xolmirzayevning “So‘nggi bekat” romani tili ustida o‘tkazilgan lingvomadaniy tadqiqot quyidagi fundamental ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

- asar matnida milliy-etnografik realiyalar va madaniy kodlar shunchaki maishiy hayot tasvirlari (fon)

emas, balki qahramonlar portretini chizishda, ularning ichki ma’naviy olamini, sotsial mavqeyini va jamiyatdagi axloqiy inqirozlarni ko‘rsatishda eng faol **psixologik detal va lingvokulturemalar** sifatida xizmat qilgan;

- adib matnda **lisoniy antiteza (oppozitsiya)** usulidan unumli foydalangan. Masalan, 87-sahifadagi ideal oilaviy o‘choq modeli bilan 115-sahifadagi andisha tizimi buzilgan o‘choq tasviri, yoki 245-sahifadagi samimiy milliy qiyofa (do‘ppi-chopon) bilan 25-sahifadagi tashqi niqob vazifasini o‘tagan libos elementlari qarama-qarshi qo‘yilishi orqali lingvokulturemalarning ko‘p funksiyali tabiati ochilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М., 1997.
2. Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини. излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.
3. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Jizzax: Сангзор, 2006.
4. Холмирзаев Ш. Сўнгги бекат: Роман. – Тошкент: Ёш гвардия, 1976. – 248 б.